

**Koson tumani yer - suv resurslari va ulardan oqilona foydalanish
masalalari**

Hasanov Furqat Shoniyoz o'g'li

2-kurs magistr

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

gmail: furqathanasnov420@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqola Koson tumani hududi va uning geologik tuzilishi, relyefi, tuman iqlimi va suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosiga qisqacha tarif berilgan. Tuman hududiga ta'sir etuvchi havo massalari va uning tuman iqlimining va suvlarini shakillanishiga ta'siri o'rganilib chiqilgan. Hududda tarqalgan tuproq turlari va ularning xususiyati va tuman xo'jaligiga ta'sirini o'rganib chiqish va tuman o'simlik va hayvonot olamini mintaqalar bo'yicha tarqalishi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: to'rtlamchi davr, eroziya, atmosfera sirkulyatsiyasi, kanal, tomchilatib sug'orish, namlik yetishmasligi, avtomorf, lyoss va lyossimon, efemer va efemeroid, sut emizuvchilar.

Obyekt: Tuman tabiiy sharoiti va resursi

Predmet: Koson tumani yer-suv resurslari

Kirish: Koson tumani Qashqadaryo viloyatining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shimoldan Samarqand viloyati, g'arbda Muborak tumani, janubi-sharqda Kaspi tumani, janubi - sharqda esa Qarshi tumani bilan chegaralangan.

Koson tumanining zamini to'rtlamchi davrning turli geografik asrlarida vujudga kelgan daryo yotqiziqlari, shamol faoliyati natijasida tuzilgan qum va giltoshlar bilan qoplangan. 10-15 metr qalinlikdagi bu qoplam tagida paleogen, bo'r va yura davrlariga mansub dengiz giltoshlari va qumtoshlarning qatlamlari joylashgan. qizil, ko'k va jigarrangdagi giltoshlar tagida o'rtacha 800-1000 metr chuqurlikda yura davri marjonli ohaktoshlari, shuningdek ayrim joylarda gips, angidrit, tosh tuz qatlamlaridan iborat yotqiziqlar joylashgan. Xususan, gorizont qatlamlarni tashkil etuvchi bu jinslarning majmualari Qo'ng'irtog', Kosontog', Maymanoqtog' kabi tektonik tuzilmalarning yer yuzasiga yorib chiqqan burmalarida ko'rinadi. Qarshi cho'lining ayrim maydonlarida to'lqinsimon relyef bo'lishining sababi ham shundadir. Bu tog' burmali tuzilmalar zamini asosan yura, bur va paleogen dengiz qoldiqlaridan iborat.



Ma'lumki, yer yuzasining hozirgi qiyofasi geologik taraqqiyot bosqichlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ana shu bog'liqlikni hamda hozirgi relyef hosil qiluvchi jarayonlarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda Koson tumani hududi tekislik relyef mintaqasida joylashgan.

Tekislikning katta qismini lyossli jinslar qoplagan maydonlar tashkil etadi. Ayni paytda deyarli batamom o'zlashtirilgan sug'orma dehqonchilik massivlari viloyat markazidan janubi-g'arb hamda shimoli-g'arbda yastanib yotibdi. Qashqadaryo o'zaniga tutash joylarda ariqlar va zovurlar yaqinidagi maydonlarda eroziya tufayli shaxobchali eroziya, sho'rlanish, botqoqlanish, shamol eroziyasi kabi nomaqbul jarayonlar paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Tekislik relyefida inson tomonidan qadimda barpo etilgan tepaliklarning tez-tez uchrashi ham relyefning muhim belgilaridandir.

Tekislik ko'pgina hollarda katta-katta maydonlar kuchli sho'rlangan botiqlar bilan qo'shilib ketadi.

Jazirama kunlar odatda 3-4 kun davom etadi. Keyin salqinroq havoning kirib kelishi bilan bog'liq holda harorat biroz pasayadi. Mevalar, uzum, qovun, tarvuzlarning shirin bo'lishi, qand moddasining ko'pligi ham yozgi ob-havoning serquyosh va haroratning yuqori bo'lishiga bog'liqdir.

Tuproq yozda tez isiydi, uning yuzasi tekisliklarda $60-70^{\circ}$, ochiq cho'llarda $+80^{\circ}\text{C}$ gacha isishi mumkin. Bunday sharoitda cho'llardagi o'simliklarning ko'pchiligi o'sishdan to'xtaydi, qovjirab quriydi. Haroratning o'rtacha yillik amplitudasi $25-30^{\circ}$ bo'ladi. Bu ko'rsatkich bo'yicha Koson tumani keskin kontinental iqlimga ega.

Koson tumanida sovuq bo'lmaydigan davr o'sha hisobda 270-280 kunga teng. Demak, bu davrda ko'pchilik issiqsevar o'simliklar hosilga kira oladi. Issiqsevar o'simliklarning ko'pchiligi bahorda o'rtacha sutkalik harorat $+10^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lganda o'sa boshlaydi.

Havoning suv bug'lariga tuyinish darajasini ko'rsatuvchi nisbiy namlik tuman hududida yoz oylarida ancha kam, qish mavsumida haroratning pasayishi va yog'ingarchilik bo'lishi tufayli bir muncha oshadi. Bir qancha joylarda havoning o'rtacha nisbiy namligi 40-45%. lekin iyulda eng past o'rtacha nisbiy namlik

Koson tumanida taqirli tuproqlar cho'l zonasida tarqalgan. Qashqadaryoning qadimiy deltasida va prolyuvial hamda delyuvial yotqiziqlaridan iborat tog' oldi



tekisliklarida tarqalgan. Taqirli tuproqlar ba'zi taqirlar cho'l-qumli tuproqlar va qumloqlar bilan aralash holda uchraydi.

Taqirli tuproqlar asosan allyuvial qumoq-gilli va qumoq yotqiziqlarda, ayrim joylarda esa chaqirli-qumoq yotqiziqlarda vujudga keladi.

Qarshi cho'li sharoitida tarqalgan taqirli tuproqlar chuchuk yoki kam minerallashgan sizot suvlari sathidan ancha past joylashganligi sababli nisbatan kam sho'rlangan. Bu tuproqlarda chirindining miqdori kam.

Umuman taqirli tuproqlar tuman hududining ancha qismini tashkil etadi. Tuman hududining g'arbiy qismida cho'l-qumli tuproqlar keng tarqalgan. Bu tuproqlarning vujudga kelishida eol, allyuvial va prolyuvial yotqiziqlar ona jins bo'lgan. Cho'l-qumli tuproqlar tarqalgan yerlarda sizot suvlari chuqur joylashganligi bilan ta'riflanadi.

Cho'l-qumli tuproqlar so'r-qo'ng'ir va taqirli tuproqlarga o'xshab ketadi. Bu tuproqlarda o'simliklar, ayniqsa efemerlar ko'plab o'sadi. Lekin bu tuproqlarda chirindining miqdori juda kam (0,3-0,5%) ozuqa beruvchi kimyoviy unsurlarga kambag'al. Cho'l-qumli tuproqlar deyarli hamma joyda sho'rlanganligi tufayli ularni o'zlashtirish uchun sho'rlanishga shuningdek shamol eroziyasiga qarshi bir qator tadbirlarni o'tkazish lozim. Shu sababli cho'l-qumli tuproqlar tarqalgan yerlardan yaylovlar sifatida foydalanish lozim.

Tog' oldi chala cho'l zonasi uchun asosan bo'z tuproqlar tipi hos bo'lib, ular dengiz sathidan 250-300 m dan 1200-1400 m gacha balandliklarda, ya'ni tog' oldi qiya tekisliklarida, adirlarda va pastak tog'larning yonbag'irlarida tarqalgan. Bo'z tuproqlar asosan lyoss va lyossimon yotqiziqlar ustida shakllangan. Bo'z tuproqlar arealida cho'l zonasidagiga nisbatan aridlik xususiyati biroz past bo'lganligi sababli o'simlik qoplamini ancha zich, bo'z tuproqlarda chirindining miqdori ham cho'l tuproqlaridagiga nisbatan ko'proq.

Gidrotermik sharoitlarning o'zgarishiga, gipsometrik holatiga, chirindi to'planishiga, karbonatlarning qatlamlar bo'yicha o'zgarishiga va boshqa xususiyatlariga ko'ra bo'z tuproqlarning och tusli, asl (tipik) va to'q tusli turlari ajratiladi.

Och tusli bo'z tuproqlarda tuzlarning miqdori, yer osti suvlari sathining holatiga bog'liq. Qashqadaryoning o'ng va chap sohilidagi yuqori terassasida sizot suvlari sathi ancha chuqur joylashgan va kam minerallashgan. Shu sababli bu yerdagi sho'rlanmagan yoki sho'rlanish darajasi past.



Dehqonchilik qilinadigan yerlarda tuproq hosil bo'lishi sharoitlari ancha o'zgaradi. Ayniqsa sug'orilib, ekin ekiladigan yerlarning ham avtomorf ham gidromorf tuproqlari o'zlarining profillarining tuzilishi va boshqa xususiyatlariga ko'ra o'zlashtirilmagan yerlarning shu xildagi tuproqlaridan ancha farq qiladi. Sug'oriladigan yerlarning tuproqlarida qalinligi ayrim hollarda 1 m va undan ortiq bo'lgan o'ziga xos agroirrigatsiya qatlami hosil bo'ladi. Shu sababli O'zbekistonlik tuproqshunoslar cho'l zonasining sug'oriladigan yerlarida o'tloq-voha, taqirli-voha va botqoq-voha tuproq tiplarini tog' oldi chala cho'l zonasining sug'oriladigan yerlarida esa o'tloq-voha, botqoq-voha va bo'z tuproqli voha tuproq tiplarini ajratadilar. Biz o'rganayotgan Koson tumani hududida asosan taqirli, cho'l-qumli, och tusli ham bo'z tuproqlar uchraydi. Ularga organik ham mineral o'g'itlarni ekin maydonlariga solingandagina o'simliklardan yuqori hosil olish mumkin.

Koson tumani o'simlik qoplamining shakllanishida va tarqalishida hududning geologik tarixiy taraqqiyoti, geografik o'rni va hozirgi tabiiy sharoitlari asosiy ahamiyat kasb etadi. O'simlik turlarining tarqalishida esa relyef, tuproq va iqlim sharoitlari muhim omillar hisoblanadi. Tuman hududida oziq-ovqat va chorvachilikda yem-xashak sifatida ishlatiladigan, qimmatbaho dorivor, efir moyli va boshqa turdagi ko'pgina o'simliklar uchraydi. Tumanning o'simlik qoplamini asosan efemerlar qisqa muddatli vegetatsiyaga ega bo'lgan bir yillik o'simliklar, efemeroidlar (qisqa muddatli vegetatsiyaga ega bo'lgan, biroq ildizi orqali qayta rivojlanadigan ko'p yillik o'simliklar), kserofitlar (uzoq qo'rg'oqchilikka bardosh beradiga cho'l o'simliklari), galofitlar (sho'rlangan yerlarda va sho'rhoklarda o'sadigan sho'rsevar o'simliklar) va psammofitlar (qumlarda o'sadigan o'simliklar) tashkil etadi.

Cho'l mintaqasida joylashgan Koson tumani hududida yillik o'rtacha harorat 16-18° ni, yanvarning o'rtacha harorati 0,1-3,3° ni tashkil etadi. Bu hududda 270-320 kun davomida harorat +5°C dan yuqori bo'ladi. Yillik yog'inlarning o'rtacha miqdori 130-230 mm. Tumanning asosiy tuproq turlarini taqirli, cho'l-qumli, so'r-qo'ng'ir tuproqlar tashkil etadi va ular orasida taqirlar va sho'rxoklar ham tarqalgan.

Research Science and
Innovation House



Xulosa va takliflar

Tuman hududidagi tarqalgan tuproqlar unumdorligi kamligi va uning katta maydonda tarqalganligi aniqlandi va bunga asosiy takliflar qishloq xo'jaligida foydalanuvchi xo'jalik yerlaridan va sug'oriladigan maydonlarni unumdorlik darajasini oshirish orqali, bundan tashqari kuz-qishgi mavsumda yerlarni almashib ekishga tayyorlashda ag'darib qo'yish kerakligi orqali tuproqning unumdorligi xususiyatini saqlab qolish mumkin.

Daryo va kanallar tarmoqlaridan sug'oriladigan yerlarni oqizish orqali sug'orish ishlaridan ko'ra intensiv usulda tomchilab su'g'orish usulini qo'llash kerakligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'oriladigan yerlarga suvni kam talab qiladigan ekinlarni ekish orqali hosildorlikni oshirish lozimligi va Turkiya texnologiasini sekin asta yashil xo'jalikga joriy etish samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediya
2. Tursunov T.N, Bazarov D.R, Matyakubov B.Sh., Berdiyev M.S., Rajabov N.Q., Ortiqboyeva F.K. „Gidroenergetik inshootlar” Toshkent- 2019
3. Jo'raqulov Obod, Muhammadiev Nosir, "Qashqadaryo viloyati" Toshkent, 2000-yil
3. Yangiboyev M., „Qashqadaryo viloyati geografiyasi”, Qarshi, 1993
4. Ravshapov P. „Qashqadaryo tarixi” Toshkent, 1995;
5. Jo'raqulov Obod, Muhammadiyev Nosir, "Qashqadaryo viloyati" Toshkent, 2000-yil

Qo'shimcha adabiyotlar

1. www.ziynet.com.uz
2. www.bibloteq.com.ru
3. www.qashstat.uz
4. www.google.uz
5. www.weatherspark.uz

